
TOSHLOQ TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASIGA YANGI MAXSUS TEXNIKALAR AJRATILDI

Tumanimiz hududlarini toza va obod etishda Obodonlashtirish boshqarmasining mehnat jamoasini hissasi beqiyosdir. Ushbu soha xodimlari har kuni erta tongda mehnatga kirishib, ko'cha va hiyobonlarni tartibga solib, saramjon-sarishta qilmoqdalar.

O'z o'rnida obodonlashtirish boshqarmasi xodimlariga munosib sharoitlar yaratish maqsadida tuman hokimligi tomonidan bir qator amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda. Keyingi yillarda korxonaning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi.

Kuni-kecha tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev boshqarma xodimlariga yangi texnikalarning kalitlarini topshirdi. Boshqarmaga yangi yuk tashuvchi hamda suv sepuvchi mashinalar taqdim etildi. Berilgan yangi texnikalarning qiymati salkam 1 milliard so'mni tashkil etadi.

Endilikda ushbu transport vositalari nafaqat tuman markazi, balki chekka qishloqlarda olib borilayotgan keng ko'lamdagi obodonlashtirish ishlarida ham xizmat ko'rsatadi.

2023-09-25 08:58:57